

UDK 615.243: 615.322

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDA OSHQOZON-ICHAK YARA KASALLIKLARI BI- LAN BOGLIQ HOLATLAR STATISTIKASI VA USHBU KASALLIKLARGA QARSHI DORI VOSITALARINING ASSORTIMENTI

Mamasoliyev A.I.

Alfraganus universiteti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya

Oshqozon yara (OY) kasalligi oshqozon-ichak trakti kasalliklari orasida eng keng tarqalgan kasalliklardan biridir. Respublikamiz hududida ushbu kasalliklar bilan kasallanish darajasi yuqori bo'lib, oxiri o'lim bilan tugallanish holatlari uchrab turadi.

OY qarshi dori vositalarining ro'yxatdan o'tgan guruhlari asosan uzoq xorijdan olib kelinadi. Respublikamiz bozorida mavjud bo'lgan OY qarshi dorilarning deyarli barchasi sintetik dori vositalardir. Ahamiyatlisi shundaki, OY kasalligini davolashda qo'llaniladigan mahalliy dori vositalarining son jihatdan ustunligiga qaramay, assortimenti keng emas.

Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklaridagi kabi boshqa hech qanday kasalliklarda, o'simlik xomashyolaridan olingan dori vositalari bunday keng ko'lamda qo'llanilmaydi. Ovqat hazm qilish tizimida o'tkir yoki surunkali kasalliklarini kelib chiqishiga ta'sir etuvchi turli xil sabablarni davolashda samarali dori vositalarini izlab topish talab etiladi. Ular qatorida dorivor o'simliklar bilan davolash o'zining ko'p qirraliligi va yumshoq ta'siri bilan muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: Oshqozon yara (OY) kasalligi, ovqat hazm qilish tizimi, fitoterapiya, dorivor o'simlik.

Аннотация

Язвенная болезнь (ЯБ) – одно из самых распространенных заболеваний желудочно-кишечного тракта. В нашей республике наблюдается высокая заболеваемость этими заболеваниями, а летальные исходы нередки.

Зарегистрированные группы противоязвенных препаратов в основном импортируются из-за рубежа. Практически все противоязвенные препараты, представленные на рынке нашей республики, являются синтетическими. Важно отметить, что, несмотря на численное превосходство отечественных препаратов, используемых в лечении ЯБ, их ассортимент невелик.

Ни при каких других заболеваниях фитопрепараты не применяются в таких масштабах, как при заболеваниях органов пищеварения. Необходим поиск эффективных лекарственных средств для лечения различных причин, влияющих на возникновение острых или хронических заболеваний органов пищеварения. Среди них важное место занимает лечение лекарственными растениями благодаря своей универсальности и мягкому действию.

Ключевые слова: Язвенная болезнь (ЯБ), пищеварительная система, фитотерапия, лекарственные растения.

Annotation

Peptic ulcer (PU) disease is one of the most common gastrointestinal diseases. In our republic, the incidence of these diseases is high, and fatalities are frequent.

Registered antiulcer medications are primarily imported from abroad. Almost all antiulcer medications available on the market in our republic are synthetic. It is important to note that, despite the predominance of domestically produced medications used in the treatment of PU, their range is limited.

For no other condition are herbal remedies used on such a scale as for digestive diseases. It is essential to find effective treatments for the various causes of acute or chronic gastrointestinal diseases. Among these, medicinal plant therapy occupies an important place due to its versatility and gentle action.

Keywords: Peptic ulcer (UD), digestive system, herbal medicine, medicinal plants.

Kirish. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, oshqozon yara kasalligi oshqozon-ichak trakti kasalliklari orasida eng keng tarqalgan kasalliklardan biridir. "Global Burden of Disease, Injuries and Risk Factors (GBD) Study" ma'lumotlariga asoslanib o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, 2019-yilda 204 mamlakat va hududda 8,1 millionga yaqin oshqozon yarasiga kasalligi qayd etilgan, bu esa 1990 yilga nisbatan 25,82% o'sganligini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan mahalliy dorivor o'simlik xomashyosini zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida kimyoviy tahlil qilish, uning farmakoterapevtik samaradorligini tarkibidagi biologik faol moddalar bilan bog'lash, ular asosida oshqozon yarasiga qarshi samarali, kam zaharli dori vositalari va biologik faol qo'shimcha(BFQ)larni ishlab chiqish va tibbiyot amaliyotiga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Usullar. Ilmiy adabiyotlar va internet ma'lumotlari to'plab, ular asosida statistik ko'rsatkichlarni ishlab chiqish.

Natijalar. Oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yarasiga butun dunyo bo'ylab ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari orasida birinchi o'rinda turadi.

Oshqozon yarasiga (OY) - surunkali kasallik bo'lib, unda asab va gumoral tizimni 1-jadval

O'zbekistonda oshqozon yarasiga kasalligidan vafot etganlar soni, jinsi va yosh guruhlariga bo'yicha ma'lumot (JSST, 2015-2019 yy.)*

Yil	2015	2016	2017	2018	2019

tartibga solishning umumiy va mahalliy mexanizmlari buziladi, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak shilliq qavatida yaralar hosil bo'ladi. U ko'pincha *Helicobacter pylori* bilan bog'liq bo'lgan, bemorning hayotiga tahdid soluvchi asoratlarning o'sishi va rivojlanishiga moyil gastrit fonida paydo bo'ladi [2,3].

Kasallikning asoratlari (qon ketish, teshilish) bilan bog'liq o'lim holatlari butun dunyo bo'ylab o'rtacha 5% tashkil etadi va so'nggi 20 yil ichida doimiy darajada saqlanib qolmoqda (2011). Rivojlangan mamlakatlarda kasallikning har 100 ming holatidan 1 tasida o'lim qayd etilmoqda [4].

O'zbekiston aholisi orasida *H. pylori* tarqalish darajasi o'rtacha 80% ortiq. Bu esa O'zbekiston *H. pylori* bilan kasallanish darajasi yuqori bo'lgan mintaqalar qatoriga kirishini ko'rsatadi [5].

JSST ma'lumotiga ko'ra, 2015 yildan 2019 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston hududida OY kasalligidan har ikki jinsning o'lim holati o'rtacha yiliga 557,4 kishini tashkil etdi (1- jadval.) [6]. O'lgan insonlarning taxminan 75%, 35 yoshdan 75 yoshgacha bo'lganlarni o'z ichiga olgan yosh guruhlariga mansub. 5 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan yosh guruhlarida o'lim darajasi boshqa guruhlariga qaraganda ancha kam.

Yosh guruhlari	jami	erkak	ayol	jami	erkak	ayol	jami	erkak	ayol	jami	erkak	ayol	jami	erkak	ayol
5-14	4	2	2	1	1	0	1	1	0	2	1	1	2	2	0
15-24	11	7	4	9	4	5	8	5	3	8	6	2	7	6	1
25-34	30	17	13	37	21	16	17	8	9	22	15	7	28	14	14
35-54	151	119	32	159	103	56	129	89	40	130	95	35	130	101	29
55-74	259	163	96	228	174	54	267	175	92	322	217	105	289	205	84
75+	95	49	46	85	51	34	113	65	48	134	69	65	109	68	41
Jami	550	357	193	519	354	165	535	343	192	618	403	215	565	396	169
Umumiy o'limga nisbatan % ulushi	0.4	0.4	0.3	0.3	0.4	0.2	0.3	0.4	0.3	0.4	0.5	0.3	0.4	0.5	0.2

*Izoh

: 2020-2025 yillar oralig'ida ushbu ma'lumotlar yangilanmagan.

Ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, shu davr oralig'ida erkaklar o'rtacha o'limi ayollarga qaraganda ikki baravar ko'p bo'lgan. OY oqibatidagi va umumiy o'lim o'rtasidagi nisbat deyarli o'zgarmagan; bu davrda u 0,2-0,5% tashkil etgan. 2016 yildan 2018 yilgacha OY kasalligidan vafot etganlarning soni naqd 19% oshgan [7].

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, OY bilan bog'liq muammolar hali o'z yechimini topgani yo'q. Qo'llanilayotgan davo usullari kutilayotgan natijalarni bermayotganligini anglatadi. O'lim holatlarining sezilarli darajada ko'payishi yuqoridagilarni tasdiqlaydi va kasallikni davolashning yangi noan'anaviy usullarini izlab topishni talab qiladi.

Oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yarasini davolash uchun ishlatiladigan dori vositalari quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- proton nasos ingibitorlari;
- gistamin retseptorlarining H₂ blokatorlari;

- xolinoblokatorlar;
- prostaglandinlar;
- antatsidlar va antibiotiklar [8].

Yuqoridagi dastlabki 4 guruhga kiritilgan dori vositalari oshqozon bezlarining sekretsiasini pasaytiradi. Antatsidlar me'da shirasining ortiqcha kislotaliligini kamaytirish uchun ishlatiladi [8]. Oshqozon shilliq qavatini himoya qilish uchun gastroprotektorlar qo'llaniladi. Ular oshqozon shilliq qavatiga bevosita ta'sir qiladi va ular ikki guruhga bo'linadi:

- OY yuzasida shilliq qavatning mexanik himoyasini hosil qiladigan vositalar;
- shilliq qavat himoya funksiyasini va shilliq qavatning zarar etkazuvchi omillar ta'siriga chidamliligini oshiradigan vositalar [8].

Hozirgi kunda OY kasalligi bir necha guruhga kiruvchi dori vositalarini birgalikda qo'llash orqali davolanmoqda. Har bir guruh dori vositalari ushbu kasallikni davolashda ma'lum vazifani bajaradi.

2018-2022 yillar ichida dori vositalari ichki bozorining tahlili shuni ko'rsatdiki(2-jadval), OY qarshi dori vositalarining

ro'yxatdan o'tgan guruhlar asosan uzoq xorijdan olib kelingan. Ular bozorda mavjud bo'lgan OY qarshi vositalarning o'rtacha 73,97% tashkil qiladi [9,10,11,12,13]. 8,23% MDH mamlakatlariga, mahalliy ishlab 2-jadval

chiqaruvchilar esa 17,8% to'g'ri keladi. OY qarshi dori vositalari, O'zbekistonda ro'yxatga olingan dorilar umumiy sonining 2,09% tashkil etdi (3-jadval).

O'zbekistonda ro'yxatdan o'tkazilgan oshqozon yarasiga qarshi dori vositalari (2018-2022 yy.)


Yil	Dori vositalarining umumiy soni	Ulardan OY qarshi	%	Ishlab chiqaruvchi mamlakatlar								
				Mahalliy			MDH			Xorijiy		
				jami	ulardan OY qarshi	ulardan o'simlik xo-mashyolaridan olingan	jami	ulardan OY qarshi	ulardan o'simlik xo-mashyolaridan olingan	jami	ulardan OY qarshi	ulardan o'simlik xo-mashyolaridan olingan
2018	8714	177	2,03	2483	35	1	1753	16	1	4478	126	2(1*)
2019	9107	182	2,00	2540	31	-	1794	16	1	4773	135	1*
2020	9420	195	2,07	2685	33	-	1830	16	1	4905	146	1
2021	10269	182	1,77	2276	28	2	1821	17	1	6172	137	2(1*)
2022	10890	244	2,24	3047	44	-	1816	17	1	6027	183	-

* O'simlik va sintetik xomashyolardan tayyorlangan kombinirlangan preparat

2022 yilda respublikada ro'yxatdan o'tgan OY qarshi dori vositalarining umumiy sonidan (244) xorijiy ishlab chiqaruvchilarning ulushi – 75%, MDH mamlakatlari – 7% va mahalliy – 18% tashkil qiladi (1-rasm) [14].

Shuni ta'kidlash kerakki, bozorda mavjud bo'lgan OY qarshi dorilarning deyarli ko'pchiligi sintetik dori vositalardir. Bu shuni

anglatadiki, mahalliy farmatsevtika korxonalarida ishlab chiqarilgan dori vositalari uchun xomashyo boshqa mamlakatlardan sotib olinadi, yana ahamiyatli joyi shundaki, OY kasalligini davolashda qo'llaniladigan mahalliy dori vositalarining son jihatdan ustunligiga qaramay, assortimenti keng emas. Ularning juda oz qismigina o'simlik xomashyosi asosida ishlab chiqariladi [14].



1-rasm. 2022-yilda O‘zbekiston bozorida mavjud OY qarshi dori vositalari ishlab chiqaruvchi mamlakatlar ulushi

Muhokama. Ma’lumki, sintetik dorilar har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Davolovchi ta’sir bilan birgalikda ular organizmning boshqa tizimlarining bir tekis ishlashini qiyinlashtiradigan nojo’ya ta’sirlarga ham egadirlar. Dorivor o’simlik xomashyosi asosida olingan dori vositalari sintetik dori vositalari bilan taqqoslaganda deyarli nojo’ya ta’sir ko’rsatmaydi. Tarkibida mavjud bo’lgan turli biologik faol moddalar o’zaro ta’sirini oshirganligi sababli, OY davolashda kompleks ta’sir ko’rsatadi.

OY davolashda qo’llaniladigan ko’plab dorivor o’simliklar azaldan ma’lum bo’lib, bular qatoriga dorivor gulxayri, daraxtsimon aloe, katta zubturm, igir, oddiy zig’ir, oqqaldirmoq, jumrutsimon chakanda, moychechak, oddiy arpabodiyon, qizilmiya, moychechak, andiz, tubulg’i bargli bo’ymodaron, zira va boshqalar kiradi. Dorivor o’simliklar bilan OY kasalliklarini davolash, qo’shimcha davolash usuli bo’lib, hozirda ko’plab shifokorlarning e’tiborini tortmoqda [15]. Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarini davolashda dorivor o’simliklardan foydalanish samaradorligi bilan ajralib turadi va ba’zi hollarda kasallikning og’ir kechishi, davomiyligi va qo’shimcha patologiyalarni inobatga olgan holda muqobil usul bo’lib xizmat qilishi mumkin. OY kasalligini davolashda dorivor o’simliklardan foydalanish patologik jarayonning

rivojlanishiga qarshi kompleks ta’sir ko’rsatishi va kam zaharliligi, uzoq vaqt nojo’ya ta’sirlarsiz foydalanish imkoniyati, kasallikning qaytalanishi holatini oldini olishda samaradorligi tufayli katta qiziqish uyg’otmoqda [16]. Oshqozon-ichak trakti kasalliklarini davolashda dorivor o’simliklar asosida olingan dori vositalarining kompleks ta’siri ular tarkibidagi biologik faol moddalarning o’zaro uyg’un ta’siri tufayli namoyon bo’ladi [1]. Ularning har biri kasallikni davolashda ma’lum bir o’ziga xos spetsifik biologik faollikni namoyish etadi – o’rab oluvchi, burishtiruvchi, og’riq qoldiruvchi, tinchlantiruvchi, yallig’lanishga qarshi, ich suruvchi, spazmolitik, yel haydovchi, qon to’xtatuvchi va boshqalar.

O’simlik xomashyolaridan olingan dori vositalari ishtahani me’yorlashtiradi, vitaminlar, mikroelementlar, mineral tuzlar miqdoriy ko’rsatkichlarini, membrana o’tkazuvchanligi, sekretiya va so’rilish jarayonlarini yaxshilaydi. Fitoterapevtik dori vositalar normal ichak mikroflorasini tiklashga va disbakteriozni davolashga yordam beradi. Ular yuqorida sanab o’tilgan ta’sirlari tufayli, bemorning asab va endokrin tizimlariga ijobiy ta’sir ko’rsatadi, oshqozon-ichak trakti shilliq qavatini yaxshilaydi, bu esa ovqat hazm qilish jarayonlarini fiziologik jihatdan to’g’irlanishiga olib keladi.

Xulosa. Oshqozon yara (OY) kasalligi oshqozon-ichak trakti kasalliklari orasida eng keng tarqalgan kasalliklardan biridir. Respublikamiz hududida ushbu kasalliklar bilan kasallanish darajasi yuqori bo'lib, oxiri o'lim bilan tugallanish holatlari uchray turadi. Unga ko'ra, keltirilgan vaqt oralig'ida erkaklar o'rtacha o'limi ayollarga qaraganda ikki baravar ko'p bo'lgan. 2016 yildan 2018 yilgacha OY kasalligidan vafot etganlarning soni naqd 19% oshgan.

OY qarshi dori vositalarining ro'yxatdan o'tgan guruhlar asosan uzoq xorijdan olib kelinadi. Respublikamiz bozorida mavjud bo'lgan OY qarshi dorilarning deyarli barchasi sintetik dori vositalardir. Ularning, xomashyosi boshqa mamlakatlardan sotib olinadi. Ahamiyatli shundaki, OY kasalligini davolashda qo'llaniladigan mahalliy dori

vositalarining son jihatdan ustunligiga qaramay, assortimenti keng emas.

Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklaridagi kabi boshqa hech qanday kasalliklarda, o'simlik xomashyolaridan olingan dori vositalari bunday keng ko'lamda qo'llanilmaydi.

Ovqat hazm qilish tizimida o'tkir yoki surunkali kasalliklarini kelib chiqishiga ta'sir etuvchi turli xil sabablarni davolashda samarali dori vositalarini izlab topish talab etiladi. Ular qatorida dorivor o'simliklar bilan davolash o'zining ko'p qirraliligi va yumshoq ta'siri bilan muhim o'rin tutadi. Bu esa mahalliy dorivor o'simliklar xomashyolari asosida OY kasalliklariga qarshi samarali dori vosilarini ishlab chiqarish va ularni tibbiyotga tatbiq qilish muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.asu.ru/files/sveden/education/rpd/RPD_33_05_01_farmatsiya_rb-2024_2024.pdf
2. Патофизиология. Клиническая патофизиология: учебник для курсантов и студентов военно-медицинских вузов: в 2 т. / под ред. проф. В. Н. Цыгана. — Санкт-Петербург: СпецЛит, 2018. — Т. 2: Клиническая патофизиология. — 495 с.
3. <http://ir.library.nmu.com/bitstream/123456789/2539/1/%D0%9D%D0%90%D0%A3%D0%9A%D0%90%D0%98%D0%98%D0%9D%D0%9D%D0%9E%D0%92%D0%90%D0%A6%D0%98%D0%AF%D0%92%E2%84%964%D0%20-%202020.pdf>
4. Гастроэнтерология: Справочник / Под ред. А. Ю. Барановского. — СПб.: Питер, 2011. — 512 с.
5. М. М. Каримов, Ж. А. Исмаилова, Г. Н. Собирова, З. З. Саатов. Распространенность хеликобактер ассоциированных заболеваний желудка в Узбекистане. Гепатология и гастроэнтерология № 1, 2018. С. 30-33
6. <https://platform.who.int/mortality/themes/theme-details/topics/indicator-groups/indicator-group-details/MDB/peptic-ulcer-disease>
7. Мамасолиев А.И. Смертность от язвенной болезни в Узбекистане. Материалы V Международной научно – практической конференции фармакологов «Актуальные вопросы фармакологии: от разработки лекарств до их рационального применения» 21-22 ноября 2024 года, г. Бухара, -с. -90-91.
8. Харкевич Д.А. Фармакология: Учебник. — 9-е изд., перераб., доп. и испр. — М.: ГЭОТАР-Медиа, 2006. — 736 с.
9. Государственный Реестр лекарственных средств и изделий медицинского назначения и медицинской техники, разрешенных к применению в медицинской практике. -№22, -2018 г.- 1074 с.
10. Государственный Реестр лекарственных средств и изделий медицинского назначения и медицинской техники, разрешенных к применению в медицинской практике. -№23, -2019 г.- 1062 с.

11. Государственный Реестр лекарственных средств и изделий медицинского назначения и медицинской техники, разрешенных к применению в медицинской практике. -№24, -2020 г.- 1083 с.
12. Государственный Реестр лекарственных средств и изделий медицинского назначения и медицинской техники, разрешенных к применению в медицинской практике. -№25, -2021 г.- 1068 с.
13. Государственный Реестр лекарственных средств и изделий медицинского назначения и медицинской техники, разрешенных к применению в медицинской практике. -№26, 2022 г. - 1097с.
14. Мамасолиев А.И. Анализ противоязвенных препаратов на рынке Узбекистана. Материалы V Международной научно – практической конференции фармакологов «Актуальные вопросы фармакологии: от разработки лекарств до их рационального применения» 21-22 ноября 2024 года, г.Бухара, -с. - 91-92.
15. https://evnuir.vnu.edu.ua/bitstream/123456789/23772/1/Medicinal_Plants.pdf
16. Убеева И. П., Ботоева Е. А., Гончикова С. Ч., Цыбикова Е. Н., Бадлеева М. В. Особенности фитотерапии болезней желудка // Acta Biomedica Scientifica. 2009. №2. С.299 URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-fitoterapii-bolezney-zheludka>